2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK: 159.9:28

Qodirova Aziza Bekmurodovna,
Termiz davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

SAYYID BURHONIDDIN MUHAQQIQ TERMIZIY ASARLARIDA SHAXS HISSIY HOLATLARI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada XII–XIII asrlarda yashab ijod qilgan yirik mutasavvif va alloma Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning ma'naviy-axloqiy qarashlari hamda ularda inson ruhiyati, hissiy holatlari va xulq-atvorining namoyon bo'lishi masalalari psixologik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Tadqiqotning asosiy e'tibori allomaning "Maorif" asarida aks etgan nafs, qalb, aql, g'azab, shahvat, hasad, sabr, tavoze, iffat, jasorat, adolat va ma'rifat kabi tushunchalarning shaxs ruhiy hayoti bilan o'zaro aloqadorligiga qaratilgan. Shuningdek, hissiy holatlarning inson xulq-atvorini boshqarishdagi o'rni, salbiy kechinmalarning shaxs ma'naviy kamolotiga ta'siri hamda ularni boshqarishning ma'naviy-psixologik mexanizmlari yoritilgan. Muhaqqiq Termiziyning fikrlarida inson xulq-atvori faqat tashqi harakatlar yig'indisi sifatida emas, balki ichki ruhiy holatlar, niyat, ehtiros va axloqiy tanlovlar bilan bog'liq murakkab psixologik jarayon sifatida talqin qilinishi asoslangan. Maqolada hasad, g'azab va shahvat kabi hissiy holatlarning destruktiv jihatlari bilan bir qatorda sabr, iffat, jasorat, adolat va donolik kabi ijobiy sifatlarning shakllanish mexanizmlari ham tahlil qilingan. Allomaning qarashlari Jaloliddin Rumiy va Sulton Valadning ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari Muhaqqiq Termiziy merosi tarixiy-tasavvufiy manba bo'lish bilan birga, shaxsning hissiy o'zini boshqarishi, axloqiy o'zini nazorat qilishi va ma'naviy-psixologik kamolotini o'rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy, "Maorif", tasavvuf, shaxs, hissiy holat, hissiyot, nafs, qalb, aql, hasad, g'azab, shahvat, sabr, iffat, jasorat, adolat, donolik, ma'naviy kamolot, komil inson, psixologik o'zini boshqarish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ СОСТОЯНИЙ ЛИЧНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ САЙЙИДА БУРХОНИДДИНА ТЕРМЕЗИЯ

Аннотация. В статье с психологической точки зрения анализируются духовно-нравственные взгляды выдающегося мыслителя и суфия XII–XIII веков Сайййда Бурханиддина Мухаккика Термизийского, а также вопросы

проявления эмоциональных состояний и особенностей психики личности в его наследии. Основное внимание уделено взаимосвязи таких понятий, как нафс, сердце, разум, гнев, страсть, зависть, терпение, скромность, целомудрие, мужество, справедливость и познание, представленных в произведении «Маориф», с внутренним миром человека. Рассматривается роль эмоциональных состояний в регуляции поведения, влияние негативных переживаний на духовно-нравственное развитие личности, а также духовно-психологические механизмы их самоконтроля. Взгляды Мухаккика Термизийского позволяют рассматривать поведение человека не только как совокупность внешних действий, но и как результат сложного взаимодействия внутренних состояний, намерений, желаний, эмоциональных переживаний и нравственного выбора. Анализируются деструктивные проявления зависти, гнева и страстей, а также психологическое содержание таких положительных качеств, как терпение, целомудрие, мужество, справедливость и мудрость. Идеи мыслителя рассматриваются в связи с духовно-нравственным наследием Джалолиддина Руми и Султана Валада. Полученные результаты позволяют заключить, что наследие Мухаккика Термизийского представляет значение не только как историко-суфийский источник, но и как важный материал для изучения эмоциональной саморегуляции, нравственного самоконтроля и духовно-психологического развития личности.

Ключевые слова: Саййид Бурханиддин Мухаккик Термизийский, «Маориф», суфизм, личность, эмоциональное состояние, эмоции, нафс, сердце, разум, зависть, гнев, страсть, терпение, целомудрие, мужество, справедливость, мудрость, духовное развитие, совершенный человек, психологическая саморегуляция.

THE PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE MANIFESTATION OF EMOTIONAL STATES OF THE INDIVIDUAL IN THE WORKS OF SAYYID BURHONIDDIN TERMIZI

Abstract. The article examines the spiritual and ethical views of Sayyid Burhan al-Din Muhaqqiq Tirmidhi, a prominent Sufi thinker of the 12th–13th centuries, with particular attention to the psychological significance of emotional states manifested in his works. The study focuses on the relationship between such concepts as the nafs, heart, intellect, anger, desire, envy, patience, humility, chastity, courage, justice and knowledge as reflected in his work “Ma'arif”. Special attention is paid to the role of emotional states in behavioral regulation, the influence of negative emotional experiences on moral and spiritual development, and the mechanisms of emotional self-control described within the Sufi tradition. Muhaqqiq Tirmidhi’s views demonstrate that human behavior should not be understood merely as a set of external actions; rather, it is closely associated with internal psychological states,

intentions, desires, emotional experiences and moral choices. The article analyzes the destructive psychological manifestations of envy, anger and uncontrolled desire, as well as the developmental potential of patience, chastity, courage, justice and wisdom. The thinker's ideas are also considered in connection with the spiritual heritage of Jalal al-Din Rumi and Sultan Walad. The findings suggest that Muhaqqiq Tirmidhi's intellectual legacy is significant not only as a historical and Sufi source but also as valuable material for understanding emotional self-regulation, moral self-control and the spiritual-psychological development of personality.

Keywords: Sayyid Burhan al-Din Muhaqqiq Tirmidhi, "Ma'arif", Sufism, personality, emotional state, emotions, nafs, heart, intellect, envy, anger, desire, patience, chastity, courage, justice, wisdom, spiritual development, perfect human, psychological self-regulation.

Kirish. Inson ruhiyati, uning hissiy kechinmalari, xulq-atvorini boshqaruvchi ichki mexanizmlar hamda ma'naviy-axloqiy kamolot masalalari qadimdan falsafa, dinshunoslik, tasavvuf va keyinchalik mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan psixologiyaning muhim tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Sharq mutafakkirlari merosida insonning ichki dunyosi, qalb kechinmalari, nafs va aql o'rtasidagi munosabat, hissiyotlarni boshqarish, irodaviy barqarorlik va axloqiy tanlov masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Markaziy Osiyo hududida shakllangan islomiy-ilmiy va tasavvufiy tafakkur an'analarida insonning ruhiy olamini o'rganish alohida o'rin egallaydi. Bu borada Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy, Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy kabi allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy (taxminan 1165–1241) tasavvuf tarixida o'zining ilmiy, axloqiy va irfoniy qarashlari bilan ajralib turadigan yirik mutafakkirlardan biridir.

Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy faoliyati Qur'on tafsiri, hadis, fiqh, kalom, mantiq va tasavvuf ilmlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Uning "Maorif" asari allomaning diniy-falsafiy, axloqiy va irfoniy qarashlarini o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Asarda Qur'on oyatlari, hadislar, tasavvuf namoyandalarining qarashlari, pand-nasihatlar, hikmatlar hamda insonning ichki dunyosiga oid mulohazalar o'zaro uyg'un holda bayon etilgan [7].

Muhaqqiq Termiziy qarashlarining psixologik jihatdan muhim tomoni shundaki, u inson xulq-atvorini faqat tashqi harakatlar orqali emas, balki ushbu harakatlar zamiridagi ichki holatlar bilan bog'laydi. Uning qarashlarida qalb, nafs, aql, iroda, ehtiros, g'azab, hasad, sabr, muhabbat, qo'rquv, tavoze va boshqa holatlar insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi omillar sifatida talqin qilinadi.

Shu jihatdan Muhaqqiq Termiziy merosini zamonaviy psixologiya nuqtayi nazaridan o'rganish shaxsning hissiy holatlari va o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining tarixiy-ma'naviy ildizlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, salbiy hissiy holatlarning kelib chiqishi, ularning xulq-atvorga ta'siri va ularni

boshqarish masalalariga alloma tomonidan berilgan e'tibor hozirgi shaxs psixologiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya va psixologik profilaktika masalalari bilan hamohang jihatlarga ega.

Adabiyotlar tahlili. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy merosini o'rganishda, avvalo, uning "Maorif" asari muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur asar turli vaqtlarda aytilgan so'zlar, ma'ruzalar, irfoniy mulohazalar, Qur'on oyatlari va hadislarga oid sharhlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, unda insonning ma'naviy kamoloti, nafsni tarbiyalash, qalbni poklash va axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalalariga keng o'rin berilgan [7].

Burhoniddin Termiziy qarashlarini o'rganishda Termiz ilmiy-ma'naviy muhitining boshqa yirik namoyandalari haqidagi tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Al-Hakim at-Termiziy ta'limotiga bag'ishlangan tadqiqotlarda insonning qalbiy dunyosi, nafs, ma'naviy poklanish va axloqiy kamolot masalalari keng yoritilgan [1; 2]. Al-Hakim at-Termiziyning "Qaytarilgan amallar" va "Yashirin masalalar" kabi asarlari ham insonning ichki holatlari, amallar va ularning ma'naviy mazmunini anglash uchun muhim manbalar qatoriga kiradi [3; 5].

"Termiziy allomalar" asarida Termiz zaminida shakllangan ilmiy-ma'naviy muhit, uning yirik namoyandalari va ularning islom ilmlari taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar keltiriladi [4]. Ushbu manbalar Burhoniddin Termiziy faoliyatini umumiy tarixiy-ilmiy kontekstda o'rganish imkonini beradi.

K. Jamahmatovning Burhoniddin Termiziyning "Maorif" asariga bag'ishlangan tadqiqotida asarning mazmuni, irfoniy mohiyati va alloma qarashlarining asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan [7]. Mazkur tadqiqot Muhaqqiq Termiziy merosidagi ma'naviy-axloqiy mazmunni anglash uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy merosi ko'proq tasavvuf, ma'naviyat, islom falsafasi va irfon nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Shaxsning hissiy holatlari, emotsional o'zini boshqarish, salbiy kechinmalarning psixologik mexanizmlari hamda hissiyot va axloqiy xulq-atvor o'rtasidagi munosabatlarni maxsus psixologik tahlil qilish esa alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy asarlarida insonning hissiy holatlari, ichki kechinmalari va ularning xulq-atvor bilan bog'liqligini psixologik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy ilmiy-ma'naviy merosining asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

"Maorif" asarida shaxsning ichki ruhiy holatlariga oid qarashlarni tahlil qilish;

nafs, qalb va aql munosabatining psixologik mazmunini ochib berish;

hasad, g'azab va shahvat kabi hissiy holatlarning xulq-atvorga ta'sirini tahlil qilish;

sabr, iffat, jasorat, adolat va donolik kabi ijobiy sifatlarning shakllanishida hissiy o‘zini boshqarishning rolini aniqlash;

Muhaqqiq Termiziy qarashlarining shaxsning ma’naviy-psixologik kamolotiga oid jihatlarini yoritish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, mazmuniy tahlil, psixologik talqin va manbalarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy merosidagi tushunchalar o‘z davrining diniy-falsafiy va tasavvufiy mazmunini hisobga olgan holda tahlil qilindi.

Psixologik talqinda zamonaviy psixologiya kategoriyalari tarixiy manbalarga sun’iy ravishda ko‘chirilmasdan, alloma tomonidan qo‘llangan “qalb”, “nafs”, “aql”, “g‘azab”, “shahvat”, “sabr”, “hasad”, “hayo”, “adolat”, “donolik” kabi tushunchalarning o‘zaro munosabati asosida ko‘rib chiqildi.

Bunda asosiy e’tibor hissiy holatlarning uch jihatiga qaratildi: birinchisi — hissiy holatning ichki kechinma sifatidagi mazmuni; ikkinchisi — uning xulq-atvor va qaror qabul qilishga ta’siri; uchinchisi — hissiy holatni ma’naviy-irodaviy nazorat qilish imkoniyati.

Natijalar va muhokama.

Muhaqqiq Termiziy merosida shaxsning ichki dunyosi

Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy ilm va ma’rifatni insonning ma’naviy kamolotiga olib boruvchi asosiy vositalardan biri sifatida talqin qiladi. Uning hayot yo‘li ham ilm olish, ustozdan ta’lim olish va o‘zlashtirilgan bilimlarni keyingi avlodga yetkazish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Manbalarda uning taxminan 1165-yilda Termiz hududida tug‘ilgani va dastlabki ta’limni oilasida olgani qayd etiladi. Keyinchalik ilm izlab turli markazlarga safar qilgani, Bahouddin Valad bilan ilmiy-ma’naviy aloqada bo‘lgani va uzoq muddat ustoz rahbarligida tahsil olgani haqida ma’lumotlar mavjud [7].

Muhaqqiq Termiziy faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri — bilimni faqat nazariy o‘zlashtirish bilan cheklanmay, uni shaxsiy tarbiya va amaliy hayot bilan bog‘lashidir. Shu ma’noda uning qarashlarida “bilish” va “bo‘lish” o‘rtasidagi munosabat muhim o‘rin egallaydi. Ya’ni inson yaxshilikni bilishi bilan birga uni o‘z xulqida namoyon etishi kerak.

Bu holat psixologik jihatdan bilim, motivatsiya, hissiyot va xulq-atvorning o‘zaro bog‘liqligi bilan izohlanadi. Insonning muayyan axloqiy me’yorni bilishi uning avtomatik ravishda ushbu me’yorga muvofiq harakat qilishini anglatmaydi. Buning uchun ichki motivatsiya, iroda, hissiy nazorat va o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari ham shakllangan bo‘lishi lozim.

Nafs, qalb va aql munosabatining psixologik mazmuni

Muhaqqiq Termiziy qarashlarida insonning ichki dunyosini tushunishda nafs, qalb va aql tushunchalari alohida ahamiyatga ega. Nafs ko‘pincha insonning bevosita istaklari, ehtiyojlari va mayllari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lsa, aql ularni nazorat qilish va tartibga solish imkonini beruvchi omil sifatida talqin qilinadi.

Qalb esa insonning ma'naviy-hissiy markazi sifatida tasvirlanadi. Bunday yondashuvni psixologik nuqtayi nazardan insonning emotsional, motivatsion va qadriyatlar tizimining o'zaro bog'langanligi bilan qiyoslash mumkin.

Alloma insonning ichki holatini o'zgartirishni tashqi xatti-harakatni o'zgartirishdan ustun qo'yadi. Chunki tashqi harakat ichki motiv yoki hissiy holat bilan mustahkamlanmasa, uning barqarorligi cheklangan bo'lishi mumkin.

Shu jihatdan "Maorif" asarida uchraydigan qalbni poklash, nafsni tiyish, behuda so'zlardan saqlanish, vaqtni qadrlash, tafakkur va zikrga murojaat qilish haqidagi fikrlarni shaxsning o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining ma'naviy shakllari sifatida talqin qilish mumkin [7].

Hissiy holat va xulq-atvorning o'zaro aloqasi

Inson xulq-atvorini faqat tashqi harakatlar bilan izohlash yetarli emas. Har qanday xatti-harakat ortida motiv, ehtiyoj, munosabat, hissiy kechinma va ma'lum darajadagi anglangan yoki anglanmagan psixologik sabablar mavjud.

Muhaqqiq Termiziy qarashlarida ham insonning xulqi uning ichki holati bilan chambarchas bog'liq. Masalan, g'azab insonning boshqa shaxsga nisbatan munosabatini keskinlashtirishi, hasad esa boshqa kishining yutug'ini salbiy baholashga olib kelishi mumkin. Aksincha, sabr, tavoze va adolat hissiy reaksiyalarni nazorat qilishga yordam beradi.

Shu ma'noda alloma qarashlarida xulq-atvorning ichki va tashqi jihatlari o'rtasidagi birlikni ko'rish mumkin. Insonning tashqi harakati uning ichki holatining ma'lum darajadagi ifodasidir. Biroq tashqi xatti-harakat doimo ichki holatni to'liq aks ettirmasligi ham mumkin. Shu sababli ma'naviy tarbiyada nafaqat xatti-harakatni, balki uning manbaini — niyat, istak va hissiy holatni ham tarbiyalash muhim hisoblanadi.

G'azab va uning psixologik namoyon bo'lishi

G'azab inson tabiatiga xos kuchli hissiy holatlardan biridir. U muayyan vaziyatda himoyalanish, qarshilik ko'rsatish yoki faol harakatga undovchi kuch bo'lishi mumkin. Biroq nazorat qilinmagan g'azab impulsiv xatti-harakat, nizoli munosabat va keyinchalik afsuslanishga sabab bo'lishi mumkin.

Muhaqqiq Termiziy merosida g'azabni mutlaq ravishda inkor etish emas, balki uni me'yorida saqlash va aql bilan boshqarish g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Bu qarash hissiy o'zini boshqarishning psixologik tamoyiliga yaqin bo'lib, unda hissiy energiyani butunlay bostirish emas, balki uni konstruktiv yo'nalishga burish ko'zda tutiladi.

Shu nuqtayi nazardan jasorat va nazoratsiz tajovuzkorlikni bir-biridan farqlash muhim. G'azab aql va axloqiy me'yorlar tomonidan boshqarilsa, u qat'iyat va jasoratga xizmat qilishi mumkin; nazoratdan chiqsa esa tajovuzkor xulq-atvorga aylanishi ehtimoli ortadi.

Shahvat va istaklarni boshqarish

Muhaqqiq Termiziy insonning ichki dunyosida istak va ehtiyojlarning alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Istakning mavjudligi tabiiy holat sifatida namoyon bo‘lsada, uning nazoratsiz kuchayishi insonning xulq-atvorini boshqarib qo‘yishi mumkin.

Tasavvufiy qarashlarda nafsni tiyish ma’naviy poklanishning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi. Psixologik jihatdan esa buni kechiktirilgan qoniqish, impulslarni boshqarish, o‘zini nazorat qilish va uzoq muddatli maqsadlarni qisqa muddatli istaklardan ustun qo‘yish qaklarini anglagan, ularni baholay olgan va maqsadlariga mos ravishda boshqara olgan sari o‘zini o‘ziobiliyati bilan qiyoslash mumkin.

Bu jarayonda iroda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shaxs o‘z istaklarini anglagan, ularni baholay olgan va maqsadlariga mos ravishda boshqara olgan sari o‘zini o‘zi boshqarish darajasi ortadi.

Hasad hissining psixologik mazmuni

“Maorif”dagi ma’naviy-axloqiy qarashlar tizimida hasad insonning ichki dunyosini buzuvchi salbiy holatlardan biri sifatida alohida baholanadi. Hasadning psixologik mazmuni boshqa insondagi yutuq, imkoniyat yoki ijtimoiy mavqeni o‘ziga nisbatan salbiy taqqoslash bilan bogining muvaffaqiyatsizligi sifatida qabul qilinishi mumkin. Natijada ichki norozilik, ranjish, g‘azab, o‘zidan qoniq‘liq.

Hasad kuchaygan holatda boshqa insonning muvaffaqiyati shaxs tomonidan o‘zining muvaffaqiyatsizligi sifatida qabul qilinishi mumkin. Natijada ichki norozilik, ranjish, g‘azab, o‘zidan qoniqmaslik kabi kechinmalar paydo bo‘ladi.

Muhaqqiq Termiziy hasadni ma’naviy jihatdan yengish uchun ilm, taqvo, tirishqoqlik, havas, tavoze va nafsni nazorat qilishga e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuvni psixologik jihatdan shaxsning ijtimoiy taqqos‘ini hasad bilan emas, havas bilan qabul qilish shaxsning motivatsiyasini kuchaytirishi mumkin. Bunday holatda “u nega ma’noda hasadni kamaytirishda o‘zini boshqalar bilan doimiy solishtirishdan ko‘ra, shaxsiy rivojlanish mezlash mexanizmini konstruktiv yo‘nalishga o‘zgartirish sifatida talqin qilish mumkin.

Masalan, boshqa insonning yutug‘ini hasad bilan emas, havas bilan qabul qilish shaxsning motivatsiyasini kuchaytirishi mumkin. Bunday holatda “u nega mendan ustun?” degan destruktiv savol o‘rniga “men undan qanday o‘rganishim mumkin?” degan konstruktiv munosabat shakllanadi.

Shu ma’noda hasadni kamaytirishda o‘zini boshqalar bilan doimiy solishtirishdan ko‘ra, shaxsiy rivojlanish mezonlariga tayanish muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Sabr va hissiy barqarorlik

Muhaqqiq Termiziy qarashlarida sabr insonning ma’naviy yetukligini ifodalovchi muhim fazilatlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Sabrni faqat qiyinchilikka chidash sifatida emas, balki hissiy reaksiyalarni boshqarish va uzoq muddatli maqsadga sodiq qol nazorat qilish bilan bog‘liq. Inson noxush vaziyatda darhol reaksiya bildirish o‘rniga vaziyatni baholay olsa, o‘z hissiyotlarini anglab, keyingi harakatini ongli ravishda tanlay olsa, uning namoyon bo‘ladi. Psixologik

jihatdan bu kognitiv baholash va xulq-atvorni ongli boshqarish jarayonlari bilan bog‘liq jasorat, iffat va adolatni shaxsning kognitiv, emotsional, irodaviy va axloqiy sohalari o‘rtasidagi uyg‘iy insonning ma’naviy kamolotini ichki poklanish jarayoni bilan bog‘laydi. “Qalb” obraziga murojaat qilishi, qalbni turli salbiy holatlardan tozalash haqidagi fikrlari shaxsning ichki dunyosini anglash va qayta tashkil etish g‘oyasini ifodalayish qobiliyati sifatida ham talqin qilish mumkin.

Psixologik jihatdan sabr frustratsiyaga chidamlilik, emotsional barqarorlik va impulslarni nazorat qilish bilan bog‘liq. Inson noxush vaziyatda darhol reaksiya bildirish o‘rniga vaziyatni baholay olsa, o‘z hissiyotlarini anglab, keyingi harakatini ongli ravishda tanlay olsa, uning psixologik o‘zini boshqarish darajasi yuqori bo‘ladi.

Shu sababli Muhaqqiq Termiziy qarashlaridagi sabr tushunchasi shaxsning hissiy yetukligini tavsiflovchi muhim tushunchalardan biri sifatida baholanishi mumkin.

To‘rt asosiy fazilat: donolik, jasorat, iffat va adolat

Muhaqqiq Termiziy merosida insonning ichki kuchlari o‘rtasidagi muvozanat masalasi muhim o‘rin egallaydi. Shaxsning ma’naviy yetukligi alohida bir fazilatning rivojlanishi bilangina emas, balki turli ichki kuchlarning uyg‘unlashuvi bilan belgilanadi.

Donolik insonning haqiqat va noto‘g‘rilikni farqlash, vaziyatni anglash va oqilona qaror qabul qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Psixologik jihatdan bu kognitiv baholash va xulq-atvorni ongli boshqarish jarayonlari bilan bog‘liq.

Jasorat qo‘rquv yoki g‘azabni butunlay yo‘qotish emas, balki ularni nazorat qilgan holda maqsadga muvofiq harakat qilishni anglatadi.

Iffat inson istaklari va ehtiyojlarini boshqarish, ularni ma’naviy-axloqiy me’yorlar bilan muvofiqlashtirish qobiliyatini ifodalaydi.

Adolat esa boshqa ichki kuchlarni muvozanatga keltiruvchi tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Unda inson o‘z hissiyotlari, istaklari va manfaatlarini boshqalarning huquq va manfaatlari bilan muvofiqlashtiradi.

Shunday qilib, donolik, jasorat, iffat va adolatni shaxsning kognitiv, emotsional, irodaviy va axloqiy sohalari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlovchi psixologik-ma’naviy sifatlar sifatida talqin qilish mumkin.

Ruhiy poklanish va psixologik o‘zini boshqarish

Muhaqqiq Termiziy insonning ma’naviy kamolotini ichki poklanish jarayoni bilan bog‘laydi. “Qalb” obraziga murojaat qilishi, qalbni turli salbiy holatlardan tozalash haqidagi fikrlari shaxsning ichki dunyosini anglash va qayta tashkil etish g‘oyasini ifodalaydi [7].

Alloma qarashlarida zikr, tafakkur, Qur’on oyatlari ustida fikr yuritish, behuda so‘zlardan tiyilish, vaqtni qadrlash va uzlat kabi amaliyotlarga e’tibor beriladi. Bularni zamonaviy psixologiya terminlari bilan to‘liq aynanlashtirish to‘g‘ri bo‘lmasa-da, ularning ayrim jihatlari diqqatni boshqarish, o‘z-o‘zini kuzatish, ichki kechin muntazam ibodat va ma’naviy mashqlar shaxsda intizom, maqsadga

yomalarni anglash va xulq-atvorni nazorat qilish jarayonlari bilan mazmunan mushtarak ekanini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, muntazam ibodat va ma’naviy mashqlar shaxsda intizom, maqsadga yo‘naltirilganlik va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhaqqiq Termiziy va Jaloliddin Rumiy ma’naviy merosi

Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning ilmiy-ma’naviy faoliyatida Jaloliddin Rumiy bilan bog‘liq munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Manbalarda Bahouddin Valad vafotidan keyin Jaloliddin Rumiyning ma’naviy tarbiyasida Muhaqqiq Termiziy muhim o‘rin tutgani qayd etiladi [7].

Jaloliddin Rumiy ijodida ham insonning ichki dunyosi, nafs, muhabbat, g‘azab, hasad, sabr, kamtarlik va ma’naviy poklanish masalalari keng yoritilgan. Shu jihatdan Muhaqqiq Termiziy ta’limotining Rumiy dunyoqarashi shakllanishidagi o‘rni alohida tadqiqot mavzusini tashkil etadi.

Sulton Valad ham o‘z asarlarida Muhaqqiq Termiziyni yuksak hurmat bilan tilga olgan. Uning xotiralarida ustozning ilmiy va irfoniy ta’siri alohida ta’kidlanadi [7]. Bu ma’lumotlar Muhaqqiq Termiziy pedagogik faoliyatining keyingi avlod ma’naviy tafakkuriga ta’sirini ko‘rsatadi.

Shaxsning hissiy holatlarini boshqarish modeli

Muhaqqiq Termiziy qarashlarini umumlashtirish asosida shaxs hissiy holatlarini boshqarishning shartli psixologik modelini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin:

ichki ehtiyoj va mayl → hissiy kechinma → anglash va baholash → aql va iroda orqali nazorat → axloqiy tanlov → xulq-atvor → odat va shaxsiy sifatning shakllanishi**.**

Mazkur modelda hissiyot xulq-atvorning yakuniy sababi sifatida emas, balki xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi ichki jarayonlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Inson hissiyotini anglab, uni baholay olgan sari o‘z harakatlarini boshqarish imkoniyati kengayadi.

Bunda hissiyotni bostirish bilan uni boshqarish o‘rtasidagi farq muhimdir. Hissiyotni butunlay inkor etish shaxsning tabiiy psixologik jarayonlarini rad etishni anglatishi mumkin. Muhaqqiq Termiziy qarashlarida esa hissiy kuchni ma’naviy va axloqiy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish g‘oyasi ustuvorlik qiladi.

Ilmiy natijalar. Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, Muhaqqiq Termiziy merosida inson xulq-atvori tashqi harakatlar bilangina emas, balki ichki ruhiy holatlar, niyat, ehtiyoj, mayl va hissiy kechinmalar bilan bog‘liq holda tushuntiriladi.

Ikkinchidan, nafs, qalb va aql tushunchalarining o‘zaro munosabati shaxsning motivatsion, emotsional va kognitiv jarayonlari o‘rtasidagi aloqani ifodalovchi mazmuniy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, hasad, g‘azab va nazoratsiz shahvat kabi holatlar shaxsning ichki muvozanatini buzuvchi hamda ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida talqin qilinadi.

To‘rtinchidan, sabr, iffat, jasorat, adolat va donolik kabi fazilatlar hissiy holatlarni boshqarish, xulq-atvorni nazorat qilish va shaxsning ma’naviy barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liq.

Beshinchidan, allomaning qarashlarida ma’naviy tarbiya tashqi xulqni shakllantirishdan ko‘ra chuqurroq jarayon bo‘lib, insonning ichki dunyosini o‘zgartirish va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Oltinchidan, Muhaqqiq Termiziy qarashlari zamonaviy psixologiyadagi emotsional o‘zini boshqarish, frustratsiyaga chidamlilik, impulslarni nazorat qilish, ijtimoiy taqqoslash, axloqiy tanlov va shaxsiy o‘sish kabi masalalarni tarixiy-ma’naviy kontekstda o‘rganish uchun qo‘shimcha manba bo‘la oladi.

Xulosa. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy merosi islom tafakkuri va tasavvuf tarixida muhim o‘rin tutishi bilan birga, insonning ichki dunyosini anglash nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Uning “Maorif” asarida insonning ruhiy-ma’naviy holati, nafs va qalb munosabati, hissiy kechinmalar, xulq-atvor va ma’naviy kamolot masalalari o‘zaro uzviy bog‘langan holda talqin qilinadi [7].

Allomaning qarashlarida inson o‘z hissiyotlari va istaklarining passiv obyekti emas. U o‘z ichki holatlarini anglash, ularni nazorat qilish va ma’naviy qadriyatlarga muvofiq ravishda boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihat shaxsning o‘zini o‘zi boshqarishi va psixologik yetukligi masalasini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega.

Hasad, g‘azab va nazoratsiz istaklar insonning ichki muvozanatini buzuvchi holatlar sifatida talqin qilinsa, sabr, iffat, jasorat, adolat va donolik ushbu holatlarni muvozanatlashtiruvchi ijobiy fazilatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, hasadning davosi sifatida ilm, tirishqoqlik, tavoze va havasga murojaat qilinishi shaxsning salbiy ijtimoiy taqqoslashni konstruktiv motivatsiyaga aylantirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Muhaqqiq Termiziy qarashlarida ruhiy poklanish jarayoni insonning ichki dunyosini anglash, nafsni nazorat qilish, hissiy holatlarni tartibga solish va axloqiy tanlovni amalga oshirish bilan bog‘liq. Shu jihatdan uning merosi tarixiy tasavvufiy manba sifatida emas, balki shaxsning ma’naviy-psixologik rivojlanishi, hissiy o‘zini boshqarishi va axloqiy barqarorligini o‘rganish uchun ham muhim ilmiy material sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, Muhaqqiq Termiziyning Jaloliddin Rumiy va Sulton Valad kabi keyingi avlod vakillariga ko‘rsatgan ma’naviy ta’siri uning qarashlarining davomiyligini ko‘rsatadi. Ustoz-shogird an’anasi orqali ilm, ma’rifat va axloqiy tarbiya tamoyillarining avloddan avlodga o‘tishi Sharq psixologik-tafakkur tarixida shaxs kamolotiga oid qarashlarning shakllanishida muhim omillardan biri bo‘lgan.

Umuman olganda, Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy merosida shaxs hissiy holatlarining namoyon bo‘lishi tashqi xatti-harakat, ichki kechinma, ma’naviy

qadriyat va iroda o‘rtasidagi murakkab munosabatlar orqali ochib beriladi. Mazkur merosni zamonaviy psixologiyaning shaxs, emotsiya, motivatsiya va o‘zini o‘zi boshqarish yo‘nalishlari bilan qiyosiy o‘rganish kelgusida yangi ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choriyev Z., Annayev T., Murtazayev B., Annayev J. Al-Hakim at-Termiziy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 149 b.
2. Omonturdiyev J. Al-Hakim at-Termiziy ta’limoti. – Toshkent: Universitet, 2000. – 95 b.
3. Al-Hakim at-Termiziy. Qaytarilgan amallar (al-Manhiyyot). Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi M. Ismoilov. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2019. – 256 b.
4. Термизий алломалар. / С. Турсунов ва бошқ. – Тошкент: Yangi nashr, 2015. – 272 б.
5. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Яширин масалалар (“ал-Масоил ал-макнуна”). Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи М. Исмоилов. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази, 2019. – 216 б.
6. Термизий Ал-Ҳаким. Нодир масалалар. Араб тилидан таржима, муқаддима ва изоҳлар муаллифи И.С. Усмонов. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2007. – 88 б.
7. Жамаҳматов К. Бурҳониддин Термизийнинг «Маориф» асари — Термиз: 2024. – 110 б.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694